

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

## “TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ASARIDAGI GRADUONIMLAR

**Zaripova Kamola Ilhom qizi**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika  
instituti Turkiy tillar fakulteti o‘zga tilli guruhlarda  
o‘zbek tili yo‘nalishi 2 – bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada badiiy asarning lingvistik tahlili aks etadi. “Tushda kechgan umrlar” asaridagi graduonimlar va o‘zlashma so‘zlarning qisqacha ta’rifi asardan olingan misollar orqali yoritib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** graduonim, o‘zlashmalar, darajalanish, badiiy asarning lingvistik tahlili

**Annotation:** this article presents a linguistic analysis of the work of art. A brief definition of graduonyms and adjectives in the work "Life in a dream" is explained through examples taken from work.

**Key words:** graduonym, appropriations, gradation, linguistic analysis of artistic work.

**Аннотация:** в данной статье представлен лингвистический анализ художественного произведения. Краткое определение градуонимов и прилагательных в произведении "Жизнь во сне" поясняется на примерах, взятых из произведения.

**Ключевые слова:** градуоним, ассигнования, градация, лингвистический анализ, художественного произведения

Graduonimiya so‘zlarning o‘zaro darajalanishini o‘rganadi. Graduonimiya (grekcha -gradito- “ko‘tarilish”, “o‘shish”, onymo -“nom”) lug‘aviy birliklar o‘zaro ma’noviy munosabatiga ko‘ra ma’lum bir darajalanish qatorini hosil etadi. Lug‘aviy graduonimiyaning mohiyati bir necha so‘zning, ma’lum bir belgining oz - ko‘pligiga qarab lug‘aviy - ma’noviy qatorda tuzilishida hosil bo‘ladi. Graduonimlik qatorlar ko‘pincha alohida bir yetakchi so‘z atrofida birlashadi. Bunda darajalanuvchi so‘zlar ko‘pligiga qarab o‘sib boradi. Darajalanuvchi so‘zlar qatorini ajratishning ma’noviy omilning mohiyati shundaki, bir qator so‘zlar ma’nolarida ma’lum bir belgining oz - ko‘pligi va yana turli xil darajalariga ishora mavjud. Darajalanish barcha so‘z turkumlari doirasida qo‘llaniladi. Endi bo‘lsa “Tushda kechgan umrlar” asaridagi graduonimlarni o‘rganib chiqamiz.

Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi... Do‘xtir chaqirsalariningchi – dedi Qurbonoy xola izzillab. Sim-sim yomg‘ir yog‘adi, to‘rt kunlik umrida dunyoga sig‘magan, oxir-oqibat jon taslim etgan tabiatga aza ochib unsiz yig‘laydi. Fotima ko‘zlari o‘tdek yonib Soatga chaqchaydi-da, tizzlariga shapatilab, faryod soldi. Yer ustida charx uribdi-da achchiq- achchiq ko‘z yosh to‘kadi. Onang sochini yulib dod soladi. Bu asardan keltirilgan uchta misolda “Yig‘lamoq” so‘zining darajalanishi mavjud. Masalan: ingramoq, izzillamoq, yig‘lamoq, faryod solmoq, ko‘z yosh to‘kmoq kabi. O‘ng ko‘kragining tagi simillab og‘riydi. Bodringdek bir narsa

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

## mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

biqiniga botib, to‘satdan sanchiq kiradi. Ikkinchisiga kelganda beli qaqshab betob bo‘lib qoladi. Quyidagi misollarda esa “Og‘rimoq” so‘zining darajalanishi bor. Og‘rimoq, sanchiq kirmoq betob bo‘lmoq kabi. - Qaranglar, deraza sinibdi! - dedi kimdir hayajonli qichqirib. Jon holatda qichqirib yubordi. Qizlar uyg‘onib hamma yoq baqir- chaqir bo‘lib ketdi. Bu gaplarda qichqirmoq, baqir – chaqir qilmoq so‘zlari darajalanadi.

Bir mahal orqa tomondan yo‘g‘on ovoz keldi. G‘azabnok hayqiriq eshitildi. Derazaning yopilgani qulog‘iga chalindi. Shlemofon ratsiyasidan vzvod komandirining ovozi eshitildi. [2:78] Bu misollarda esa “eshitmoq” so‘zining darajalanishi kuzatiladi. Shahnoza bilan Rustam akasining boshi ustida deraza sharaqlab yopildi. Mayor kabinaga o‘tirib, eshikni qarsilattib yopdi. Deraza taraqlab yopilgani qulog‘iga chalindi. Mikrofon yana gumburlay boshladi. Bu yerda esa sharaqlamoq, taraqlamoq, qarsillamoq so‘zlari graduonimdir. Komissar kuldi. Rustam akasiga damba – dam jilmayib qo‘yardi. “Shapkasisiz shapkali” qah – qah urib kuldi. [2:120] Shtanga ko‘taradiganlarga o‘xshash baquvvat kelbatli yigit surbetlarcha iljayib qo‘l uzatdi. Tishlari irjayib turibdi [2:145]. Natasha xandon otib kuldi. Oyim bir akamga bir menga qarab kulimsirab qo‘ydi. Bu misollarda “kulmoq” so‘zining darajalanishi mavjud. Shu tomonga qaradi-yu shosha – pisha mashinasiga yugurdi. “Burbuxayka” o‘rnidan jadal jilib yurib ketdi. [2:91] U to‘xtash o‘rniga shiddat bilan yelib borardi.[2:92] Akam ham men tomonga chopdi. Bu misollarda esa yurmoq, yugurmoq, yelmoq so‘zlarida graduonimlik kuzatiladi. Fotima yelkasiga osilgan qizini kifti bilan nari itardi. “Kerak bo‘lsa, olaqol!” degandek nimchani yerga uloqtirdi. Bu yerda itarmoq, uloqtirmoq so‘zlari. Yarim kuncha kuttik . So‘ngi snaryad portlab bo‘lganidan keyin ham yigirma daqiqalar poylab turdik. Bu yerda esa kutmoq, poylamoq so‘zlari. Xotini allanima deb pichirladi. [2:127] Kuyov uning qulog‘iga shivirlab allanimani tushuntirar edi. *Pichirlamoq va shivirlamoq* bu gaplarda darajalanyapti. Ayiqbashara barzangi xirillab nafas ola boshladi. O‘sha kecha xotini hiqillab qoldi [2:128]. Bu misoldagi graduonimlar hiqqilamoq va hirillamoq so‘zlari. Eshigi tepasidagi qizil chiroq kulga tushgan cho‘g‘dek xira yiltiraydi. Qo‘lida pichoq yaraqladi [2:92]. Dasturxon yig‘ishtirilmagan stol ustida stakan solingan sham lipillab turibdi [2:231]. Bu gaplarda *yiltiramoq, lipillamoq, yaraqlamoq* so‘zlari darajalanishni hosil qilgan. Sepmasang supurgi urishing bilan to‘zg‘ib, betinga sapchiydi. Mashinalar g‘ildiragi ostidan loy aralash qor sachraydi. Bu misollarda sachramoq, sapchimoq, to‘zg‘imoq fe‘llari darajalangan. Bir pasda tumonot odam yig‘ildi [2:139]. Manzerning hamkasblari bo‘lsa kerak, oyog‘i olti, qo‘li yetti bo‘lib yugurgilagan yosh yalanglar to‘plandi.[2:139] Bu misollarda esa yig‘ilmoq va to‘planmoq so‘zlari. - Chamadoning qani, soldat! - dedi shang‘illab.

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Muncha shaqillaydi bu shopir [2:149]. - Qaranglar, deraza sinibdi! - dedi kimdir qichqirib gaplarida esa shang‘illamoq va shaqillamoq, qichqirmoq fe’llari graduonim bo‘lgan. Motor tovushi gurillab quloqni qomatga keltirdi. Mikrofon yana gumburlay boshladi. Bu gaplarda esa graduonimlikni gurillamoq va gumburlamoq so‘zlarida kuzatishimiz mumkin.

Badiiy asarni tahlil qilish jarayonida nafaqat adabiy jihatdan, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan kelib chiqib ham ish tutmoq lozim. Shundagina tahlil qilinayotgan asarning qimmatliligi oshadi. Asarda hali endi o‘rganilayotgan graduonimlarni topib, ularni tahlil qilish, bu asarning yanada mazmunini ochib berishga, muallifning so‘z boyligini tekshirishga muvaffaq bo‘ladi. Asarni lingvistik tahlil qilish o‘quvchilarni faqat shu badiiy jihatdan emas, balki, til jihatdan o‘rganishga ham undaydi. O‘quvchilarda asarni ikki tomonlama o‘rganib borish shakllanadi. Graduonimlar asarning yanada ma’no mazmunini boyitadi va asarni o‘qiyotgan insonni zeriktirib qo‘ymaydi. O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” asarida sakson yettidan ortiq graduonimlar qo‘llangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hakimova H Semasiologiya – Toshkent: 2008
2. Hoshimov O‘ Tushda kechgan umrlar – Toshkent: 2019
3. Sharif Bobojonov Ikrom Ismoilov O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati - Toshkent: Yangi asr avlodi – 2007